

## HIKOYALARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH VA O'QUV METODIKALARINI QO'LLASH.

**Aliqulova Basanda Akram qizi**

*Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

[aliqulovabasinda@gmail.com](mailto:aliqulovabasinda@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida hikoyalarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Hikoyalarning tarbiyaviy ahamiyati, ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar hamda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri tahlil qilingan.*

**Annotatsiya.** *This article examines the issue of developing students' moral qualities in the process of teaching short stories in general secondary schools. The educational significance of short stories, the methods used in teaching them, as well as their impact on students' spiritual and moral development are analyzed.*

**Kalit so'zlar:** *hikoya, badiiy adabiyot, axloqiy tarbiya, axloqiy fazilatlar, o'quvchi shaxsi, ma'naviy kamolot, o'quv jarayoni, pedagogik yondashuv, interfaol metodlar, innovatsion metodika, integrativ-refleksiv yondashuv, tahlil, baholash, refleksiya, ta'lim samaradorligi, tarbiyaviy ahamiyat.*

**Keywords:** *short story, fiction, moral education, moral qualities, student personality, spiritual development, learning process, pedagogical approach, interactive methods, innovative methodology, integrative-reflective approach, analysis, evaluation, reflection, teaching effectiveness, educational significance.*

Bugungi rivojlanib borayotgan bir davrda, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki, jamiyat taraqqiyoti nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarni talab qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarda halollik, rostgo'ylik, mas'uliyat, mehroqibat kabi fazilatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday fazilatlarni rivojlantirishda badiiy adabiyot, ayniqsa hikoya janri muhim o'rin tutadi. Hikoyalar o'zining ixchamligi, hayotiyligi va obrazlilik bilan o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ularda aks ettirilgan voqealar va qahramonlar orqali o'quvchilar yaxshilik va yomonlikni farqlashni, insoniy munosabatlarni tushunishni o'rganadi. Shu bilan birga, hikoyalarni o'qitish jarayonida zamonaviy o'quv metodikalarini qo'llash o'quvchilarning nafaqat matnni tushunish darajasini oshiradi, balki ularning axloqiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Masalan, Nazar Eshonqul ijodiga mansub "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasini tahlil qilsak, bu hikoya ramziy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda inson hayoti, erkinlik, orzu va haqiqat o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy tarzda ifodalanadi. Asarda

“shamol” obrazi bejiz tanlanmagan bo‘lib, u inson qo‘lida ushlab bo‘lmaydigan, lekin uning hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan hodisalarni anglatadi. Hikoyada asosiy g‘oyalardan biri — insonning erkinlikka intilishi. Qahramonlarning ichki kechinmalari orqali o‘quvchi erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish muhimligini anglaydi. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va shaxsiy pozitsiya bildirish ko‘nikmasini shakllantiradi. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” [7:6] ifodasi hayotdagi ayrim hodisalarni nazorat qilib bo‘lmasligini bildiradi. O‘quvchi asarni tahlil qilish jarayonida hayotda hamma narsani boshqarish mumkin emasligini, sabr va to‘g‘ri qaror muhimligini tushunadi. Bu esa realistik dunyoqarashni rivojlantiradi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi o‘quvchilarda nafaqat badiiy didni, balki hayotiy falsafani, erkin fikrlashni va ma’naviy yetuklikni rivojlantiruvchi muhim tarbiyaviy asardir. Uni dars jarayonida tahlil qilish o‘quvchilarning axloqiy tafakkurini boyitadi va hayotga ongli munosabatni shakllantiradi.

Hikoya - bu badiiy adabiyotning qisqa, ammo mazmunan boy janri bo‘lib, unda hayotiy voqealar orqali muhim g‘oyalar ifodalanadi. Hikoyaning asosiy xususiyati shundaki, u o‘quvchini tezda jalb qiladi va qisqa vaqt ichida muayyan xulosaga olib keladi. Shu sababli hikoyalar o‘quvchilarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Hikoyalar orqali o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularni baholaydi va o‘z hayoti bilan solishtiradi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. [6:75]

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari ham badiiy asarning tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Xususan, Abdulla Qahhor adabiyotni insonni tarbiyalaydigan kuchli vosita sifatida baholagan bo‘lsa, O‘tkir Hoshimov kitob o‘qish insonning axloqiy kamolotiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar hikoyalarni o‘qitish jarayonida ularning tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. [4:43]

Fikrimcha, an’anaviy dars usullarida o‘qituvchi asosiy faol shaxs bo‘lib, o‘quvchi esa ko‘proq tinglovchi rolida qoladi. Bunday yondashuv o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlamaydi va uning mustaqil fikrlashini cheklaydi.

Shu sababli bugungi kunda interfaol va innovatsion metodikalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Bu metodlar o‘quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqadi, uni fikrlashga, bahslashishga va xulosa chiqarishga undaydi.

Ishlab chiqilgan yangi metodika bu - Integrativ-refleksiv yondashuv. [3:28]

Hikoyalarni o‘qitishda axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun integrativ-refleksiv metodika samarali hisoblanadi. Ushbu metodika o‘quvchining bilimini, fikrlashini va shaxsiy munosabatini birgalikda rivojlantirishga qaratilgan.

Mazmuniy anglash bosqichi: bu bosqichda o‘quvchi hikoyaning mazmunini chuqur tushunadi. O‘qituvchi savollar orqali o‘quvchini fikrlashga undaydi.

Axloqiy tahlil bosqichi: o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi va axloqiy xulosa chiqaradi.

Hayot bilan bog'lash bosqichi: hikoya voqealari real hayot bilan taqqoslanadi va o'quvchi o'z fikrini bildiradi.

Refleksiya bosqichi: o'quvchi o'zida qanday o'zgarish bo'lganini anglaydi va umumiy xulosa chiqaradi.[3:31]

Xulosa qilib aytganda, hikoyalarni o'qitish o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Zamonaviy metodikalarni qo'llash orqali bu jarayon yanada samarali bo'ladi. Integrativ-refleksiv yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki axloqiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Natijada o'quvchi hikoyadan chuqur ma'no chiqaradi va uni hayotda qo'llashga intiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil.
2. Qodirov V., Nishonov M. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Safarov Sh. **Adabiyot o'qitish metodikasi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Qahhor A. **Tanlangan asarlar**. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1987.
5. Hoshimov O'. **Dunyoning ishlari**. – Toshkent: Sharq, 2001.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. **Pedagogik texnologiyalar asoslari**. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.
7. Nazar Eshonqul. "Shamolni tutib bo'lmaydi va boshqa hikoyalar"